



O‘ZBEKISTON PREZIDENTLIGIGA NOMZODLAR SAYLOVDA OVOZ BERDI

9-iyul kuni Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug‘bek Inoyatov, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan nomzod Robaxon Mahmudova, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan nomzod Abdushukur Hamzayev Prezident saylovida ovoz berdi.



O‘zbekiston Respublikasi Xalq demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Ulug‘bek Inoyatov poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 427-saylov uchastkasida ovoz berdi.

Prezident saylovi doimo demokratik davlatlar taraqqiyoti va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim institut sifatida markaziy o‘rinni egallab kelgan. Zero, har qanday demokratik jamiyat o‘zagini erkin va adolatli saylovlar tashkil etadi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotida fuqarolarimiz qonunda belgilangan saylash huquqidan foydalanib, o‘zlarining siyosiy faolliklarini namoyon etdi.

Bo‘lib o‘tgan Prezident saylovida siyosiy partiyalar tomonidan har qachongidan ham jiddiy tayyorgarlik ko‘rilgani ovoz berish jarayonida aholining ko‘tarinki ruh bilan ishtirok etganligida yaqqol sezildi.

Saylov jarayoni to‘liq xalqaro huquq normalariga mos, oshkoralik, ko‘p partiyaviylik, erkinlik, tenglik tamoyillariga muvofiq o‘tdi. Bunda saylov tizimiga oid qonunchilikda fuqarolarning saylovoldi kampaniyasida va ovoz berishda erkin qatnashishi, ovoz berish yashirinishi, buni har bir fuqaroning o‘zi bevosita amalga oshirishi belgilab qo‘yilgani alohida ahamiyat kasb etdi.

Hamyurtlarimiz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida faol qatnashdi. Bu esa ularning Vatan taqdiri, yurt kelajagi, farzandlarimizning ertangi kuniga mas‘uliyatni astoydil his etayotganidan darak beradi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyev 9-iyul kuni oila a‘zolari bilan birga Toshkent shahridagi 59-saylov uchastkasiga tashrif buyurib, saylovda ovoz berdi.

Ma'lumki, joriy yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendum natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi. Unda huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy tamoyillar yanada mustahkamlanib, davlatning bu boradagi majburiyatlari oshdi. Yangilangan Konstitutsiya davlat hokimiyati oldiga yangi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni qo‘ydi.

Shu bois davlatimiz rahbari Konstitutsiyaning 128-moddasiga muvofiq, muddatidan ilgari Prezident saylovi o‘tkazish haqida xalqimizga murojaat qildi. Bu tashabbus Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda jamoatchilik faollari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Markaziy saylov komissiyasi 4 ta siyosiy partiyadan nomzodlarni ro‘yxatga oldi. 14 ta saylov okrugi va 10 ming 784 ta saylov uchastkasi tuzildi. Saylovda ishtirok etgan barcha nomzodlarga teng va erkin sharoitlar yaratildi.

Prezident saylovi mamlakatimizning buguni va kelajagi, xalqimiz farovonligiga ta’sir etuvchi muhim siyosiy voqeadir. Fuqarolar buni chuqur his etib, saylovda faol ishtirok etdi.

Bu jarayonni 47 ta davlat va 15 nufuzli xalqaro tashkilotdan jami 797 nafar xalqaro kuzatuvchi bevosita kuzatib bordi, ommaviy axborot vositalari keng yoritdi.



O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Robaxon Mahmudova Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 21-saylov uchastkasiga oilaviy tashrif buyurdi. Saylovlar jarayonida ishtirok etib, ovoz berdi.

Yurtimizda demokratik tamoyillar asosida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qonunchilik yo‘li bilan muvofiqlashtirish, aholining turmush sifati va darajasini yanada oshirishga qaratilgan islohotlar o‘z samarasini bermoqda.

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan muhim siyosiy tadbir – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ham mamlakatimiz fuqarolari yana bir tarixiy voqelikning bevosita ishtirokchisi va guvohi bo‘ldilar.

Chunki, saylovlar kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo‘lib, xalqning o‘z xohishi-irodasini erkin ifodalashi, jamiyat va davlat boshqaruvda fuqarolar ishtirokining asosiy shaklidir.

Ta’kidlanganidek, bu galgi saylovda kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik huquqiy davlatda ochiq-lik, shaffoflik tamoyili ta’minlanayotgani ochiq namoyon bo‘ldi.

Yurtimiz kelajagi, uning yanada taraqqiy topishi saylovlarning eng yuksak demokratik talablar va umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga mos, Bosh qomusimizda mustahkamlangan qoidalar asosida o‘tishiga, saylovchilarning faolligi va ular qabul qiladigan qarorga bog‘liq.



O‘zbekiston Ekologik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayev Toshkent shahridagi 583-saylov uchastkasida ovoz berdi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishining oldini olish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Negaki, xalqimiz va kelajak avlod uchun munosib turmush sharoitlari yaratish hamda farovon jamiyat barpo etishda, eng avvalo, barqaror ekologik muhit yaratilishining o‘z o‘rni bor.

Mamlakatimizda aholining turmush sifati va darajasini yanada oshirishga qaratilgan islohotlar bugun o‘z samarasini berib kelmoqda.

Prezident saylovi saylovlar davomida to‘plangan milliy tajriba, ilg‘or xorijiy amaliyot, shuningdek, xalqaro standartlar asosida shakllantirilgan Saylov kodeksi asosida bo‘lib o‘tdi. Mazkur Saylov kodeksida Prezident saylovlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan birga, siyosiy partiyalar va ularning nomzodlari tomonidan olib borilayotgan tashviqot turlari, shakllari hamda usullari aniq belgilab qo‘yildi.

Eng muhimi, xalqimizning mazkur siyosiy jarayon — Prezident saylovida faolligi sezildi. Bu jarayonning adolatlari va shaffof o‘tishiga munosib hissa qo‘shdi.

O‘ZA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.**



SAYLOV — 2023

HAMYURLARIMIZ ISLOHOTLARGA MUSTAHKAM ISHONCHINI NAMOYON ETDI

Kuni kecha, 9-iyul kuni mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi.

Ta’kidlash joiz, bu yilgi saylov birinchi marta yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida, shuningdek, Saylov kodeksi va xalqaro talablarga mos ravishda, ochiq, shaffof va demokratik ruhda o‘tdi.

Ovoz berish huquqiga ega fuqarolarimiz saylovda faol ishtirok etib, o‘zlari tanlagan nomzodga ovoz berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ovoz berish uchun xorijda bo‘lib turgan fuqarolarimizga ham zarur sharoitlar yaratildi. Shu tariqa xalqimiz farovonligi, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim siyosiy jarayon — Prezident saylovi nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda tashkil



qilingan saylov uchastkalarida ham qizg‘in kechdi. Bu — hamyurtlarimizning islohotlarga, ertangi farovon kuniga bo‘lgan mustahkam ishonchidan dalolat beradi.

Quyida Prezident saylovida ishtirok etib, o‘z tanlovini erkin amalga oshirgan yurtdoshlarimiz fikrlari bilan tanishasiz.

Davomi 3-betda



EKSPERTLAR FIKRI

PREZIDENT SAYLOVI — O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIYA SARI TASHLANGAN KATTA QADAM

Ovoz berish jarayoni xalqaro kuzatuvchilar nigohida

9-iyul kuni muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Respublikamizda va xorijiy ellarda dunyoning 47 mamlakatidan, 15 ta xalqaro tashkilot va 15 ta xorijiy davlatning Markaziy saylov komissiyalaridan 800 nafar atrofida xorijiy kuzatuvchi ovoz berish jarayoni monitoringini olib bordi.

Davomi 2-betda

SAYLOVDA DAVLAT VA JAMOAT ARBOBLARI HAM FAOL ISHTIROK ETDI

9-iyul kuni mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Unda davlat va jamoat arboblari ham faol ishtirok etdi.

Saylovlar kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik huquqiy davlatning ajralmas belgisi, xalqning o‘z xohishi-irodasi erkin ifodalanishi, jamiyat va davlatni boshqarishda fuqarolar ishtirokining asosiy shaklidir. Yurtimiz kelajagi, uning yanada taraqqiy topishi saylovlarning eng yuksak demokratik talablar va umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga mos, Bosh qomusimizda mustahkamlangan qoidalar asosida o‘tishiga, saylovchilarning faolligi va ular qabul qiladigan qarorga bog‘liqdir.

Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov Andijon shahridagi 31-umumta’lim maktabida tashkil etilgan 20-saylov uchastkasiga kelib ovoz berdi.

— Yurtidoshlarimiz, andijonliklar Prezident saylovida faol ishtirok etayotganidan xursandman, — dedi viloyat hokimi Sh.Abdurahmonov. — Bo‘lib o‘tayotgan muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi

mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyatimizda demokratik tamoyillarning yanada mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Vatanimiz taqdiriga, xalqimizning porloq kelajagiga befarq qaramaydigan har bir yurtidoshimiz saylovda faol qatnashib, eng munosib nomzod uchun ovoz berishi lozim.

Surxondaryo viloyati hokimi Ulug‘bek Qosimov 9-Surxondaryo saylov okrugi hududidagi 861-saylov uchastkasida ovoz berdi.

— Muddatidan ilgari Prezident saylovi mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti, yurtimiz obodligi, ko‘p millatli xalqimiz farovonligini belgilab beradigan muhim siyosiy tadbir, — dedi U.Qosimov. — Bu jarayonda qatnashish barchamiz uchun Konstitutsiyada belgilangan huquq va sharafli burchdir.

Davomi 2-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



SO‘Z — XALQARO KUZATUVCHILARGA

SAYLOV UCHASTKALARIDA FUQAROLAR SAYLOV HUQUQLARINI ERKIN AMALGA OSHIRISHI UCHUN BARCHA SHAROIT YARATILGAN

Amonvan RUANGATAVAT, “Ambassador World Magazine” jurnali bosh direktori (Tailand):

— Avvalo, xalqaro kuzatuvchi sifatida O‘zbekistonga taklif qilgani uchun mamlakatingizning Tailanddagi elchixonasiga o‘z minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Bu O‘zbekistonga birinchi tashrifim va mamlakat-ingizda meni samimiy kutib olishganidan juda xursand bo‘ldim. Agar mendan O‘zbekiston va uning odamlari haqidagi taassurotlarimni so‘rasangiz, hech ikkilanmasdan aytamanki, bu yerda men hayotdan mamnun, ochiq chehrali, tabassumli, mehmondo‘st insonlarni ko‘rdim. Bizga ko‘rsatilayotgan yuqori darajadagi xizmat va mehmondo‘stlikni ham alohida qadrlash kerak. Bu, albatta, butun o‘zbek xalqining mehr-oqibati ko‘zgusidir.

Yurtlingizda men ko‘rgan hamma narsa hayratlanarli. Bir necha kun ichida ko‘p joylarda bo‘ldim va O‘zbekistonga tashrif buyurishni rejalashtirayotgan sayyohlar uchun bu mamlakat juda jozibali, degan xulosaga keldim.



Kuzatuvchi sifatida Samarqand, Buxoro viloyatlarida va Toshkent shahridagi saylov uchastkalarida bo‘ldim.

Qayd etishni istardimki, barcha saylov uchastkalarining o‘ziga xos muhiti bor, bir-biridan farq qiladi, lekin ayni paytda ularni bir jihat — munosib tashkiliy saviya birlashtiradi.

Saylov kuni ham saylov uchastkalarida bo‘lib, odamlar ovoz berishga ongli ravishda kelganini, ovoz berish jarayonida faol ishtirok etganini ko‘rdik.

Prezident saylovida yoshlarning faol ishtirokini ham kuzatdik. Ko‘pchilik yigit-qizlar saylovda ilk bor ishtirok etayotganiga guvoh bo‘ldik. Biz ularning yuz-ko‘zida hayotga bo‘lgan mehr-muhabbat va yuksak ishonchni ko‘rdik.

Saylovda yoshlar ishtirokiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Eng muhimi, bu yoshlarning barchasi Prezident saylovidek muhim jarayonda faol ishtirok etish istagida ekanini ko‘rinib turardi.

Umuman olganda, xalqaro kuzatuvchi sifatida O‘zbekistondagi Prezident sayloviga yuqori darajadagi tayyorgarlikni qayd etishim mumkin. Ishonch bilan ayta olamanki, men borgan har bir saylov uchastkasi xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlangan, bu yerda har bir fuqaro o‘z konstitutsiyaviy huquqidan foydalanishi va saylashi uchun barcha sharoit yaratilgan.



QR-kod orqali videoga ўting.

XALQINGIZ O‘ZI ISTAGAN NOMZODGA KO‘TARINKI KAYFIYATDA OVOZ BERDI

Pandey Sanjay KUMAR, xalqaro kuzatuvchi (Hindiston):

— Men siyosiy jarayonlarda ko‘p ishtirok etganman. Jumladan, Prezident saylovlarida kuzatuvchi sifatida qatnashganman. Bu kabi siyosiy jarayonlar natijasi har qanday davlat rivojlanishi va aholining hayotda munosib yashashini ta‘minlashi bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatingizda bo‘lib o‘tgan Prezident saylovini kuzatib borar ekanmiz, bizni, ayniqsa, muhim siyosiy jarayonga tayyorgarlik, saylov kuni fuqarolarning faolligi, say-

lov uchastkalaridagi bayramona kayfiyat xursand qildi. Xalqingiz o‘zi istagan nomzodga ko‘tarinki kayfiyatda ovoz berdi.

Qaysi saylov uchastkasiga bormang, soya-salqin joylar qilingan, saylovchilar uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Ovoz berish uchun yoshi ulug‘ insonlarning ham kelgani, ota-onalar farzandlarini qo‘lidan yetaklab, xuddi bayramga borgandek saylov uchastkasiga kelib ovoz berganini ko‘rib, ochig‘i, hayratim oshdi.

HECH BIR TASHKILIY ISH E‘TIBORIMIZDAN CHETDA QOLGANI YO‘Q

Jakip ASANOV, xalqaro kuzatuvchi (Qozog‘iston):

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida MDHga a‘zo davlatlar parlamentlari vakillaridan iborat kuzatuvchilar guruhi ham ishtirok etmoqda. Bu yerda birinchi kun ishlayotganimiz yo‘q. Bunga qadar O‘zbekiston saylov qonunchiligining xalqaro me‘yorlardagi demokratik talablarga qanchalik mos ekanini o‘rgandik. Bu borada vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishladik.

Bundan tashqari, muddatidan ilgari ovoz berish jarayonlarini ham kuzatdik. Tan olish kerak, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi say-

lov uchastkalarida katta tashkiliy ishlarini amalga oshirganining guvohi bo‘ldik.

Saylov kuni erta tongdan saylov uchastkalarida bo‘lib, siyosiy jarayonni bevosita kuzatib bordik. Hech bir tashkiliy ish e‘tiborimizdan chetda qolgan yo‘q. Saylov qutillari shayligi, yashirin ovoz berish uchun yetarli kabinalar hozirlanganiga ham e‘tibor qaratdik.

Ishonimizki, xalqingiz bugungi va yaqin istiqboldagi hayoti farovonligi, mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy qarorini qabul qildi.



EKSPERTLAR FIKRI

PREZIDENT SAYLOVI — O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIYA SARI TASHLANGAN KATTA QADAM

Ovoz berish jarayoni xalqaro kuzatuvchilar nigohida

Boshlanishi 1-betda



Azhar Bin AZIZAN, Vakillar palatasining sobiq spikeri va Malayziya saylov komissiyasining sobiq raisi:

— O‘zbekistonda muhim demokratik jarayon — menga berilgan Prezident saylovini kuzatishdek sharaft uchun minnatdorlik bildirimoqchiman.

Bu mening mamlakatingizga birinchi tashrifim, juda ko‘p taassurot ortirdim. O‘z vazifamga kelsak, aytishim mumkinki, ovoz berish jarayoni muammosiz o‘tmoqda. Men milliy

saylov qonunchiligi va xalqaro demokratik me‘yorlarga nomuvofiqlik holatlarini kuzatmadim.

Saylov uchastkalarida fuqarolarning o‘z saylov huquqlarini to‘liq amalga oshirishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. O‘zbekistonning Markaziy saylov komissiyasini ushbu saylov yaxshi tashkil etilgani bilan tabriklayman.



Endryu LAMBERT, “Elektron media xizmatlar” kompaniyasi mutaxassisi (Buyuk Britaniya):

— O‘zbek xalqi uchun muhim bo‘lgan Prezident saylovidek o‘ta muhim jarayonda yurtlingizda bo‘lish men uchun katta sharaft. Shuni aytib o‘tishim kerakki, bu siyosiy tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish yuqori sa‘viyada tashkil etilgan. Ovoz berish jarayonini kuzatishda ishtirok etayotgan xalqaro ekspertlar soni jihatdan ko‘pligi va ular uchun ham qulay sharoitlar yaratilganini alohida qayd etishim lozim.

Ushbu jarayonda mamlakatning har bir fuqarosi as-toydil, g‘ayrat va katta mas‘uliyat bilan o‘z mamlakati istiqbolini ko‘zlab bevosita ishtirok etayotganiga e‘tibor qaratdim.

Shnayder Yaron MOSHE, 12-telekanal muxbiri (Isroil):

— O‘zbekiston Prezidenti saylovida ikkinchi marotaba xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etayotirman.

Jurnalist sifatida ko‘proq saylovchilar fikri bilan qiziqar ekanman, shunga amin bo‘ldimki, fuqarolar bu siyosiy jarayonga yana bir jiboyi o‘zlash sari tashlangan qadam, deb qaramoqda va bunga amin bo‘lmoqda. Aholining siyosiy jarayonlarga qiziqishi tobora ortib borayotgani va uning faol ishtirokchisiga aylanishi intilayotgani, o‘z navbatida, ularning huquqlari izchil himoya qilinayotganidan dalolat beradi.

Ushbu saylov jarayonining tashkil etilishi xalqaro talblarga mos keladi, deyish mumkin.



Musa Almamedov, jurnalist (Ozarbayjon):

— Men O‘zbekistonga Prezident saylovini yoritish uchun xalqaro jurnalist sifatida kelganman. Mana, ikki kundan beri O‘zbekistonda bo‘lib, saylovga tayyorgarlik ishlari bilan yaqindan tanishdim. Aytishim kerakki, men yuqori darajadagi tayyorgarlik va aholi faolligini ko‘rmogdaman.


Saylov komissiyalari a‘zolari aniq va puxta ishlayotir, chunki er-talabdan oq saylovchilarning katta oqimi kuzatilmoqda. Ovoz berish jarayonini kuzatayotgan xalqaro kuzatuvchilar uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. O‘ylaymanki, ushbu saylovlar — O‘zbekistonda demokratiya sari qo‘yilgan katta qadamdir.

Kazis Starkevichus, Litva parlamenti a‘zosi:

— Men O‘zbekistonga juma kuni kechqurun yetib keldim va faqat go‘zal poytaxtingiz — Toshkentni ko‘rishga muvaffaq bo‘ldim. Lekin shu vaqt ichida bir qancha saylov uchastkalari ishi bilan tanishib chiqdim. Hamma joyda odamlar faol ovoz bermogda va ular ko‘pincha milliy liboslarda ke-lyapti. Menimcha, bu ham ma‘lum bir muhit yaratadi va tadbirni yanada ommabop qiladi.

Bundan tashqari, saylovchilar ishtiroki soat 11:00 gacha 30 foizdan oshgani va bu juda yaxshi ko‘rsatkich ekaniga alohida e‘tiborni jalb qilmoqchiman. Ishonchim komilki, bugun kechqurun biz yangi Prezident nomini bilib olamiz.

Saylov uchastkalari haqida shuni qo‘shimcha qilmoqchi-manki, u yerda odamlarning ovoz berishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan, o‘xratlar tartibli, raqamli tizim ishlagan, ro‘yxatga olingan saylovchilar soni 2-3 ming kishidan oshmaydi.



Xolid Taymur AKRAM, Pokiston tadqiqot markazining ijrochi direktori:



rivojlanishlar bo‘lsa, ikkinchisi, saylovlar tashkil etilishining sifat jihatidan yanada takomillashib, demokratlashib borayotganidir.

Bu galgi O‘zbekiston Prezidenti saylovida ovoz berish jarayoni yuzasidan shuni ta‘kidlashni istardimki, biz bir qator saylov uchastkalarida bo‘lib, ularning barchasida ovoz berish uchun sharoitlar risoladagidek tashkil etilganiga bevosita guvoh bo‘ldik. Mas‘ul xodimlar u yerda faol va sidqidildan ishlamoqda. Barcha saylov uchastkalarida saylov jarayoni shaffof o‘tmoqda.

Saylovchilar bilan suhbatlashdim va mamlakat fuqarolarining ovoz berishga katta mas‘uliyat bilan qarayotganidan mamnun bo‘ldim. Ayniqsa, yosh avlodning keng ishtiroki bu nafaqat ijobiy amaliyot, balki o‘z mamlakatining kelajagi uchun befarq emasligini ko‘rsatadi.

Jahongir ALAM, Bangladesh Saylov komissiyasi kotibi:



— Saylov uchastkalariga borganimizda aholining ushbu muhim siyosiy tadbirida faol ishtirok etgani guvohi bo‘ldim. Shuningdek, ovoz berish jarayonini tashkil etishda barcha qulay sharoitlar yaratilganini ko‘rdim.

Shu bilan birga, saylovchilar bilan suhbatlashishga ham muvaffaq bo‘ldim. Kishini ta‘sirlandiradigan jihat shundaki, fuqarolar bu siyosiy jarayon o‘z kelajaklarining yorqinligiga xizmat qilishini tushungan holda ovoz berayotganini his etdim.

Asqar Shakirov, Qozog‘iston Senatining xalqaro munosabatlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi:

— Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi sakkizta saylov uchastkasida bo‘ldik. Birinchi navbatda, Prezident sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishning yuqori darajada tashkil etilganini alohida ta‘kidlamogchiman. Biz borgan barcha saylov uchastkalarida ovoz berishga yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rilgan, deyarli barcha saylov uchastkalari saylovni o‘tkazish uchun zarur materiallar va atributlar bilan ta‘minlangan.

Caylov uchastkalarida Prezidentlikka nomzodlar va ularning saylovoldi dasturlari, saylovchilarning huquqlari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlar taqdim etilmoqda. Ovoz berish jarayonini kuzatishda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va xalqaro kuzatuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratilgan.



Ayrim saylov uchastkalarida elektron ro‘yxatga olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan, bu esa mamlakatimizda raqamli texnologiyalarning saylov jarayoniga integratsiyalashganidan dalolat beradi.

Quvonarlisi, alohida ehtiyojli saylovchilar uchun zarur chora-tadbirlar inobatga olingan: saylov uchastkalari Brail alifbosa ko‘rsatilgan ma‘lumotlar bilan jihozlangan, imkoniyat cheklangan fuqarolar uchun maxsus kabinalar o‘rnatilgan. Say-

lovchilarning yashash joyiga borib ovoz berish jarayonini o‘tkazish ham yuqori darajada tashkil etildi. Bu elektoratni qamrab olish, barcha toifadagi fuqarolarning saylov huquqlarini ta‘minlash nuqtayi nazaridan juda muhim.

Fuqarolarning faolligi yuqori, biz borgan uchastkalarda mahalliy vaqt bilan soat 10-11 ga kelib, saylovchilarning ovoz berishi 30 foizdan oshdi. Bu xalqning yuksak siyosiy faolligining dalolat beradi. Prezident saylovi, aslida, tarixiy voqea bo‘lib, xalq O‘zbekiston oldiga qo‘ygan katta vazifalarni amalga oshiradigan davlat rahbarini tanlaydi.

O‘zbekiston ayni paytda xalqaro maydonda munosib o‘rin egallaydi. Uning bozor iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda.

Biz Qozog‘istonda strategik hamkorimiz va qardosh davlat O‘zbekistonning muvaffaqiyatlaridan juda xursandmiz. Mamlakatlarimiz Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

“Dunyo” AA

Siyosat

HAMYURTLARIMIZ ISLOHOTLARGA MUSTAHKAM ISHONCHINI NAMOYON ETDI



**2023
9-IYUL
O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI**

Boshlanishi 1-betda

BEFARQ BO‘LIB TURISHGA HAQQIM YO‘Q

**Abdurashid MIRZAYEV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan sport
ustosi
(Qashqadaryo viloyati):**



— Yildan-yilga yurtimiz chiroq ochib borayotganini ko‘rib ko‘z quvnaydi. Yoshim sakson to‘rtida. Bugungidek har sohada islohotlar, yangiliklar, o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rganim yo‘q. Ayniqsa, inson qadri va qaddi tiklanib, yashashga bo‘lgan ishtiyoq ortdi. Odamlar dunyoqarashi, fikri o‘zgardi.

Bizning bolaligimiz havas qilarli darajada o‘tmagan. Bir kun to‘q, bir kun och yurganmiz. Og‘ir kunlarni ko‘p ko‘rdik. Eslassam, ko‘zingga yosh keladi. Shu bois, bugungi zamonning har bir kuniga shukrona aytamiz. Ozod, obod mamlakatda farovon yashashdan ortiq baxt yo‘q. Ko‘chalarni to‘ldirib, shodon yurgan bolalarga qarang, ular ilmda, sportda dunyoni lol qoldiryapti. Har kuni bir farzandimiz erishgan yutuqlar haqida yangilik eshitamiz. Bundan quvonmay bo‘ladimi?!

Bir paytlar biz islohotlar faqat shaharlarda bo‘ladi, deb yurar edik. Bugun uning aksini ko‘ryapmiz. Qishloq

va ovullar obod bo‘lyapti. Yo‘llar obod, elektr, gaz, suv ta‘minoti — barcha barchasi e‘tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Bir oy oldin borgan manzilingizga qayta borsangiz, adashib qolasiz. Zamonaviy sport inshootlariga qarab, bugunning yoshlari qanchalik baxtli ekaniga havasingiz keladi.

Saylov jarayoni boshlanganidan buyon nomzodlar dasturini, ilgari surayotgan g‘oyalarni diqqat bilan kuzatib, tanishib bordim. Deyarli har kuni e‘tiborimda bo‘ldi. Sport faxriysi sifatida yurt ravnaqi, farovonligi, mamlakat taraqqiyoti bardavomligi uchun xizmat qiladigan nomzodga ovoz berdim.



QR-kod orqali videoga o‘ting.

MAQSADIM – IQTISODIYOTIMIZNING BARQAROR RIVOJLANISHIGA MUNOSIB HISSA QO‘SHISH



**Suhrob RAHMONOV,
“BUR KOMPRESSOR NAVOIY”
MCHJ ta‘sischisi
(Navoiy viloyati):**

Korxonamiz kelgusida xizmat ko‘rsatish sohasida ham kerakli ishlar amalga oshirilmoqda. 150 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, bugungi kunda 49 ta ishlab chiqarish va qayta ishlash uskunasiga ishga tushirilgan.

Korxonamizda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga qaratilgan loyihalar bo‘yicha mahalliy bozorlarimiz uchun yangi bo‘lgan 300 dan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, hozirda burg‘ulash, kompressor va maxsus texnikalar uchun yangi turdagi ehtiyot qismlar ishlab chiqarilishi o‘zlashtirilgan.

Ishchi-xodimlarga 3 mahal issiq ovqat berilib, ishga borib-kelishi uchun xizmat mashinalari ajratilgan. Albatta, bu qulayliklar ularning mehnat faoliyatini yaxshi olib borishi, pirovardida, samaradorlikka erishishda yordam beradi.

Bu jarayonlarning barchasi yurtimizda tadbirkorlar faoliyati rivoji uchun keng sharoitlar yaratib berilayotgani, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar natijasidir.

O‘ylaymanki, bu kabi islohotlar yanada shiddat bilan davom etadi. Biz esa bu imkoniyatlardan samarali foydalanib, yurtimiz iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shaveramiz.

58 YOSHIMDA BIRINCHI MARTA ISHTIROK ETDIM

**Feruz SHOMURODOV,
Forish tumanidagi “O‘zbekiston” MFY
hokim yordamchisi
(Jizzax viloyati):**



— Bugun men 40 yoshga yashardim. Nega desangiz, Prezidentlik saylovidek sharaflari, yurt taqdiriga nisbatan mas‘uliyatli jarayonda ishtirok etish uchun 18 yoshda bo‘lishingiz talab etiladi. Men esa 58 yoshimda ana shunday muhim tanlovda ilk bor ishtirok etdim va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashib, o‘zim munosib deb bilgan nomzodga ovoz berdim.

Ha, bu men uchun unutilmas voqea bo‘ldi. Zero, qariyb 60 yoshga kirib birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etyapman. Buning ham o‘ziga yara-sha sabablari bor. Forish tumanining Uxum qishlog‘ida tug‘ilganman va o‘rta maktabni ham shu yerda bitirganman. So‘ng Tojikiston davlat universitetiga o‘qishga kirdim. Oliy ma‘lumotli bo‘lib, bir necha yil Dushanbe shahrida ishladim.

To‘qsoninchi yillar boshida o‘z Vatanim — O‘zbekistonga qaytib keldim, ammo fuqarolik berishmadi. Ushbu masalada barcha tegishli tashkilotlarga murojaat qildim, mas‘ul shaxslar qabulida bo‘ldim. Bari natijasiz edi.

To‘g‘ri, turli tashkilotlarda ishladim, emin-erkin yurdim. Ammo O‘zbekiston fuqarosi emasligim uchun o‘zimni xuddi begonadek his qilardim. Tasavvurimda odamlar ham menga shunday qarayotgandek tuyulaverardi.

Fuqaroligim yo‘qligi uchun mana shunday saylovlarda ishtirok etish huquqim ham yo‘q edi. Eng alam qiladigani, shu yerda tug‘ilib, voyaga yetib, ma‘lum vaqt boshqa davlatda o‘qib, ishlaganim sababli chorak asrdan ziyod vaqt O‘zbekiston fuqaroligini qayta ololmadim.

AHOLI FAOLIGI ORTGANINI KUZATDIM

**Jumaali SHABANOV,
Toshkent shahri Mirobod tumanidagi
111-saylov uchastkasi raisi:**



— Bizning saylov uchastkamizga “Mingo‘rik” va “Movarounnahr” mahallalari birlashtirilgan, 2211 saylovchi ro‘yxatga olingan. Shundan 172 kishi saylov kuni yashash joyida bo‘lmagani sababli muddatidan ilgari ovoz berish imkoniyatidan foydalandi.

Saylov kuni erta tongdan aholi gavjum bo‘ldi. Ertalab soat 8:00 dan boshlab saylov uchastkasi yopilguncha saylovchilar kelib, o‘zi tanlagan nomzodga ovoz berdi. Barchaning yuz-ko‘zida xursandlik, xotirjamlik hissi namoyon bo‘ldi. Albatta, bularning barchasi yurtimizdagi bugungi tinchlik-totuvlik muhiti samarasidir.

Men ilgari ham ko‘p saylovlarda ishtirok etganman. Jarayon aholining saylovlari tadbirlarida va saylov byuroyida faolligi ortganini kuzatdim. Bu esa xalqimizning dunyoqarashi tubdan

o‘zgargani va yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi kuchayganini ifoda etadi.

Joriy yil mamlakatimizda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz umumxalq ishtiroki bilan qabul qilingani xalqimizning yurt ravnaqi yo‘lida intilishlari va hamjihatligini yanada kuchaytirdi. Zero, yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda bugungi hayotimiz va taraqqiyotga xizmat qiladigan muhim huquqiy asoslar o‘z aksini topdi.

Prezident saylovi aynan ushbu Konstitutsiyada belgilangan tamoyillar asosida o‘tgan bu jarayonga xalqaro hamjamiyatning ham qiziqishini kuchaytirdi. Saylov kuni bizning uchastkamizga ham mahalliy kuzatuvchilar va OAV vakillari qatorida ko‘plab xorijlik ekspertlar tashrif buyurgani, jarayonni boshdan oxirigacha kuzatib borganini buning yaqqol dalilidir.



QR-kod orqali videoga o‘ting.

KELAJAGIM UCHUN OVOZ BERDIM

**Farzona YO‘LDOSHEVA,
Zulfiya nomidagi davlat mukofoti
sovrindori (Farg‘ona viloyati):**

— Men ham mamlakatimizdagi boshqa tengdoshlarim qatori Prezident saylovida ishtirok etib, o‘zim munosib, deb bilgan nomzodga ovoz berdim.

Bu jarayondagi ilk ishtirokim hayotimdagi eng quvonchli dam hisoblanib, menda el-yurt kelajagiga bo‘lgan daxldorlik tuyg‘usini mustahkamladi.

O‘zbekiston yoshlar mamlakati sifatida e‘tirof etib kelindi. Bu bejiz emas. Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar manfaatlarini himoya qilish borasida mustahkam huquqiy baza yaratildi. Davlatimiz tarixida ilk bor “Yoshlar kuni” nishonlana boshlagani ham tengdosh-



larimiz uchun o‘ziga xos quvonchli bayram bo‘lishi bilan birga, ularni yangi maralarga chorlovchi, jonajon Vatanimizga sadoqatini yanada kuchaytiruvchi beqiyos rag‘bat hamdir.



MAHALLA TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR BARDAVOM BO‘LAJAK

**Qayum SOHIBOV,
Yangiheyot tumani “Yangiheyot”
MFY raisi (Toshkent shahri):**



— Mahallamizdan 2380 fuqaro saylovchilar ro‘yxatiga kiritildi. Shundan 132 nafari muddatidan ilgari ovoz berishda ishtirok etdi. Saylovchilarning 12 na-

fari birinchi marta ovoz berdi. Ushbu yig‘it-qizlarimizga Prezident saylovidagi ilk ishtirokidan esdalik bo‘lib qolsin, deb kitoblar sovg‘a qildik.

Aytish kerakki, keyingi yillarda yurtimizda mahalla tizimida ham muhim islohotlar amalga oshirilyapti. Buning natijasida hayotda uchraydigan ko‘plab muammolarni hal etish, aholini qiynayotgan masalalarga yechim topishda mahalla yetakchi bo‘g‘inga aylanib boryapti. Hozir mahallada oqsoqol, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va boshqa tizimlar hamkorligida ish olib borilayotgani ham o‘z samarasini bermoqda. Kelgusida mahalla instituti faoliyatini yanada rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan.

Ishonchimiz komilki, Prezident saylovi mamlakatimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishda muhim qadam bo‘ladi.

ERTANGI KUNIMIZ BUGUNGI SAYLOVDA MUNOSIB NOMZODNI TANLASHGA BOG‘LIQ

**Biybiraba BEKJANOVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti o‘qituvchisi
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi):**



— Prezident saylovi O‘zbekiston xalqi, shu jumladan, qoraqalpog‘istonliklar uchun ham katta bayram bo‘ldi. Kessa-yu yosh — barcha ovoz berish uchun saylov uchastkasiga bordi. Bu har bir fuqaro ertangi kuniga befarq emasligidan dalolat beradi.

Siyosiy jarayonga har birimiz mas‘uliyat bilan yondashdik. Chunki ertangi kelajagimiz bugungi saylovda munosib nomzodni tanlashga bog‘liq ekanini yaxshi bilamiz-da. Shuning uchun ham saylovda o‘zim munosib, deb bilgan nomzodga ovoz berdim.

Bugun O‘zbekiston jahonda o‘z o‘rniga ega davlat. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatimizda inson qadriini ulug‘lash, odamlarning hayotdan roziligiga erishish, ularga munosib ish va tumush sharoiti yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, ochliklik va oshkoralikni ta‘minlash yo‘lida yuritilayotgan adolatli siyosat tufayli mavqeimiz yanada oshmoqda. O‘zbekiston yashash uchun dunyodagi eng qulay davlatlardan biriga aylanayapti.

Shu joyda bir gapni alohida aytib o‘tmasam bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda yurt

taraqqiyoti, farovon kelajak uchun eng asosiy dastak bo‘lgan ta‘lim sohasiga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Buni birgina oliy ta‘lim yo‘nalishidagi ishlar, amalga tatbiq etilayotgan hayotiy yangilanishlar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, xotin-qizlarning bilim olishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida magistratura bosqichida o‘qiyotgan yuzlab talaba qizning shartnoma puli to‘lab berilgan bo‘lsa, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta‘lim olayotgan xotin-qizlarga shartnoma to‘lovi uchun foizsiz kreditlar ajratilmoqda. Bu ham yoshlarimiz, ayniqsa, xotin-qizlar ko‘proq oliy ta‘lim olishi, demakki, “Ilmli ona — bilimli farzand” tamoyili asosida zariyoli jamiyat yaratish yo‘lidagi imkoniyat deb bilaman.



QR-kod orqali videoga o‘ting.

SHIFOXONADA BO‘LSAK HAM TANLOVIMIZNI BILDIRDIK

**Gulbahor JO‘RAYEVA,
Namangan tumani “Xonobod”
MFYda yashovchi fuqaro:**



— Ikki o‘g‘lim bor. O‘zim tuman tibbiyot birlashmasining xirurgiya bo‘limida farrosh bo‘lib ishlayman. Shu bois, tibbiyot sohasidagi katta ijobiy o‘zgarishlarga shaxsan guvohman.

O‘tgan yili shifoxonaga sog‘lig‘imdan shikoyat bilan kelganima surunkali baxshir yetishmovchiligi va kamqonlik deb tashxis qo‘yishdi va darhol muolajani boshlashdi.

Vaqt-vaqti bilan mutaxassislar ko‘rigidan o‘tib turibman. Xudo xohlasa, shifokorlar tavsiyalariga qat‘iy rioya qilib tuzalib ketishimga umidim, ishonchim baland. Hukumatimiz g‘amxo‘rligi uchun rahmat, bepul dori-darmon bilan ta‘minlab turibdi.

Rejali davolanishim saylov kuniga to‘g‘ri keldi. Shifoxona yaqinida 41-saylov uchastkasi joylashgan ekan. Shu saylov uchastkasi mas‘ullari bizga ham saylash huquqidan foydalanish uchun imkoniyat yaratib berdi. Saylov kuni 225 bemor saylash huquqidan foydalandi.

Saylovda o‘z tanlovim bilan qatnashganimdan xursandman. Shifokorlar qadriini ko‘taradigan, bizdek bemorlar tezroq sog‘ayishi uchun har tarafлама g‘amxo‘rlik ko‘rsatadigan munosib nomzodga ovoz berdim.

Ilohim, yurtimizda doimo bayramlar, to‘ylar bo‘lsin. Hech kimning shirin joni og‘rimasin, aslo dardga chalinmasin, xonadoniga qayg‘u yo‘lamas!



QR-kod orqali videoga o‘ting.

Yurt kelajagini bunyod etishga bel bog‘lagan, amalga oshirilayotgan ishlariga daxldorlik hissini tuygan, fidoyi va ijodkor yoshlarimizni rag‘batlantirish maqsadida “Kelajak bunyodkori” medali ta‘sis etildi. Yig‘itlarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini yanada yuksaltirish, mardlik, jasorat, sadoqat kabi fazilatlarini shakllantirish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti ta‘sis etilgani ham ana shu e‘tibor va g‘amxo‘rlikning amaliy ko‘rinishi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuksak intellektual salohiyatli, kitobga oshno, bilimli avlodni voyaga yetkazish maqsadida “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi tashkil etildi va respublikamiz bo‘ylab eng ommalashgan tanlovga aylandi. Shuningdek, yoshlar biznes tashabbuslari, g‘oya va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish hamda qo‘llab-quvvatlash,

band bo‘lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘qitish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar bizga har jihatdan tashabbus ko‘rsatib ishlash imkonini bermoqda.

To‘qqiz yoshimdan buyon skripkaga qiziqaman. Bir necha bor Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlarida o‘tgan xalqaro ko‘rik-tanlovlarda g‘olibi bo‘ldim. 2021-yilda san‘at yo‘nalishida Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlanib, O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga imtiyozli asosda o‘qishga qabul qilindim.

Maqsadim — o‘zbek musiqa san‘ati an‘analariga sodiq qolgan holda, yangi kuy-qo‘shiqlar yaratish asnosida milliy musiqa durdonalarimizni dunyoga tanitish. Bugungi saylovdagi tanlovim bu borada o‘ziga xos imkoniyatlar yaratishiga ishonaman.

O‘z muxbirlarimiz

QR-kod orqali videoga o‘ting.



TRANSPORT INFRATUZILMASI

KELAJAKni YAQINLASHTIRAYOTGAN YO‘LLAR

Shu yilning 9-iyun kuni “Zhejiang union of railway logistics” kompaniyasi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va “Qirg‘iz temir yo‘li” davlat korxonasi hamkorligida Xitoyning Lanchjou stansiyasidan Toshkentga 30 ta konteynerdan iborat ilk blok poyezd yo‘lga tushdi. Tarkibida umumiy qiymati 2,5 million dollarni tashkil etuvchi quyosh panellari, mexanik jihozlar, mato va boshqa yuklar bo‘lgan poyezd poytaxtimizga 15 kunda yetib kelishi belgilandi.

Abdurauf QORJOV, V,
iqtisodiy sharhlovchi



Yangi transport yo‘lagi ochilishi bilan Xitoy portlari va boshqa viloyatlaridagi yuklar temir yo‘l orqali Shinjon-Uyg‘ur avtonom tumanidagi Qashg‘ar terminaligacha yetkazib beriladi. Bu yerda yuklar avtomobillarga yuklanib, Qirg‘iziston hududidan o‘tadigan yo‘llar orqali Andijongacha keltiriladi. Undan keyin ularni yana temir yo‘l yordamida O‘zbekistonning istalgan manziliga yetkazish mumkin bo‘ladi. Mazkur loyiha Sian shahrida bo‘lib o‘tgan Xitoy — Markaziy Osiyo sammiti doirasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida yo‘lga qo‘yildi.

Joriy yil 18-mayda Sian shahrida Xitoy Taraqqiyot va islohotlar davlat qo‘mitasi, Qirg‘iziston Transport va kommunikatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Transport vazirligi o‘rtasida Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi loyihasi bo‘yicha keyingi bosqichlarni nazarda tutuvchi uch tomonlama hujjat imzolangan edi.

— Xitoy temir yo‘l qurilish korporatsiyasining birinchi loyiha-tadqiqot instituti O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy temir yo‘li qurilishining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni muddatidan qariyb bir yarim oy oldin yakunladi, — deydi O‘zbekiston transport vaziri Ilhom Mahkamov. — Imzolangan hujjat loyihani amalga oshirishning keyingi bosqichlarini belgilab, qurilish rejasini ishlab chiqish, investitsiya, moliyalashtirish modelini o‘rganish va aniqlashni o‘z ichiga olgan “yo‘l xaritasi” hisoblanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston va Xitoy tomoni yangi transport yo‘lagi qurilishini jadallashtirish, bu yo‘nalishda temir yo‘l konteyner tashuvlarini rivojlantirish, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston avtomobil yo‘lining uzunksiz ishlashini ta‘minlash va yuk tashish hajmini oshirishga tayyorligini bildirdi.

Loyiha doirasida Jalolobod — Makmal — Arpa — Torug‘at — Qashg‘ar qo‘shma yo‘nalishi bo‘ylab avtomobil yo‘li qurish ham rejalashtirilgan. Qirg‘iziston orqali o‘tadigan bu yo‘l O‘zbekistonga qo‘shimcha 5 million tonna tranzit yuk tashish imkonini berishi kutilmoqda.

Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lining umumiy uzunligi 454 kilometrni tashkil etadi. Shundan 280 kilometr Qirg‘iziston hududidan o‘tishi rejalashtirilgan. Liniyada jami 18 ta stansiya, uzunligi 26,1 kilometr bo‘lgan 81 ta katta va o‘rta ko‘prikl, 120,39 kilometrli 41 ta tunnel quriladi.

Xitoy G‘arbiy hududlarni rivojlantirish dasturi doirasida temir yo‘l barpo etish loyihalarini faol joriy etyapti va ayni kunda po‘lat izlari qariyb Qirg‘iziston chegarasigacha tortib kelingan.

O‘zbekistonda ham bu masalalar to‘la hal etilgan, ayni paytda barcha temir yo‘l yo‘nalishlarini elektrlashtirishni nihoyasiga yetkazish ustida ish olib borilyapti.

Tadqiqotchilar fikricha, yotqiziladigan temir yo‘l izlarining kengligi bo‘yicha masala ham hal qilingan. Gap shundaki, O‘zbekiston va Qirg‘izistondagi temir yo‘l izlari kengligi xuddi sobiq ittifoq respublikalaridagi kabi 1520 millimetrdan tashkil etgan bir paytda Xitoy 1435 millimetrdan (Yevropadagi kabi) tor temir yo‘l izlaridan foydalanib keladi. Muhokamalar natijasida g‘ildiraklarning Qirg‘iziston chegarasiga kirishda emas, balki qirg‘iz-o‘zbek chegarasi hududida almashtirilishi ko‘zda tutilaypti. Bu jarayon ikki temir yo‘l izlari tutashadigan yuk tashish-tushirish stansiyasida amalga oshirilishi mumkin.

Loyiha Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlarga bo‘lgan yo‘lni taxminan 900 kilometrga, yuk yetkazib berish muddatini esa 7-8 sutkaga kamaytiradi. Dastlabki taxminlarga ko‘ra, yuk tashish hajmi yiliga 12-15 million tonna atrofida bo‘ladi.

Qirg‘iziston Vazirlar Mahkamasi Raisi, Prezident Administratsiyasi rahbari Aqilbek Japarov o‘tgan yil dekabr oyi boshida loyiha qiymati 6 milliard dollarga baholanganini ta‘kidlagan edi. Endi esa uning taxminiy qiymati 3–5 milliard dollar bo‘lishi aytilmoqda.

Siyosatshunos Nargiza Umarovanning qayd etishicha, Xitoy bilan bog‘lovchi temir yo‘lga ko‘p urg‘u berilayotganiga sabab shuki, buning ortidan

O‘zbekistonning transport logistikasi borasidagi o‘rni keskin o‘zgaradi. Ya‘ni O‘zbekiston markaziy nuqtaga aylanadi. Qirg‘iziston yo‘lagi ishga tushsa, transkavkaz yo‘nalishi bilan bog‘lanadi va bunda O‘zbekiston bog‘lovchi bo‘ladi. Bundan tashqari, yo‘lakni Janubiy Osiyo (Pokiston) tomon burish ham mumkin. O‘zbekiston bu borada chorraha bo‘ladi.

TRANSPORT YO‘LAKLARINING IMKONIYATI

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, pandemiya arafasida dunyo transport xizmatlarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi miqdori 4,3 trillion dollar (6,9 foiz) deb baholandi, yiliga 110 milliard tonna yuk va 1 trilliondan ortiq yo‘lovchi tashilgan, transport infratuzilmasida band bo‘lgan xodimlar soni 100 million kishini tashkil etgan. Koronavirus pandemiyasi va dunyoda davom etayotgan turli mojaroalar tufayli bu ko‘rsatkich ancha pasayib ketdi. Xalqaro transport tuzilmasi keyingi paytga kelib, o‘z qaddini asta-sekin tiklay boshladi.



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti doktoranti Abbos Boboxonov va qirg‘izistonlik tadqiqotchi, siyosiy fanlar nomzodi Nargiza Murataliyevaning tahlillariga ko‘ra, Yevroosiyo hududida uchta asosiy yo‘lak mavjud. Uning shimoliy va janubiy yo‘nalishlari keyingi yillarda mintaqada ro‘y bergan ziddiyatlar tufayli jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Markaziy Osiyo yo‘lagiga hozir ega maqbul, xavfsiz yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Shu bois, XXR ushbu loyihani amalga oshirishga katta e‘tibor qaratib, uni istiqbolli va manfaatli deb hisoblaydi. “Bir makon — bir yo‘l” tashabbusi asosida yuzaga kelayotgan yangi yo‘l juda ko‘p muammolarni hal etishda asqotadi. Bundan tashqari, uzunligi 5 ming 470 kilometrni tashkil etadigan yangi temir yo‘l magistrali boshqa yo‘nalishlarga qaraganda ancha qisqa bo‘ladi: XXR — Mo‘g‘uliston — Rossiya — Belarus — Yevropa Ittifoqi (8 ming 650 kilometr), XXR — Qozog‘iston — Kaspiy dengizi — Ozarbayjon — Gruzziya — Turkiya — YEI (9 ming 120 kilometr), XXR — Qozog‘iston — Turkmaniston — Eron — Turkiya — YEI (10 ming 170 kilometr), XXR — YEI dengiz yo‘li (10 ming kilometr)dan ortiq).

Mintaqadagi barcha mamlakatlar bilan chegaradosh bo‘lgan O‘zbekiston nainki qo‘shni, balki Sharqiy Osiyoni Janubiy Osiyo, Yaqin Sharqni Kavkaz va undan keyin Yevropa bilan transport tarmog‘i orqali birlashtirish salohiyatiga ega. Qolaversa, O‘zbekiston o‘zining ichki va tashqi transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida 2 ming 400 kilometrtdan ortiq yangi temir yo‘l qurildi, mavjudlarining 3 ming kilometrtdan ziyodi elektrlashtirildi, 1 ming 100 kilometr qismi qayta tiklandi. Oxirgi uch yilda avtomobilda

xalqaro yuk tashishda mahalliy korxonalar ulushi 60 foizdan ortdi, 1 ming 500 kilometrtdan ziyod avtomobil yo‘li qurildi.

Mamlakatimizda sanoat, tadbirkorlik tobora rivojlanib, eksportyorlar soni ortib boryapti. Xususan, Statistika agentligining 2023-yil yanvar-may oylaridagi tashqi savdo bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlariga asosan, O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 25,8 milliard dollarga yetdi va 2022-yilning shu davriga nisbatan 5,2 milliard dollarga yoki 25,4 foiz oshdi.

Iqtisodiyotda ishlab chiqarish qanchalik muhim bo‘lsa, mahsulotni yetkazib berish ham shunchalik ahamiyatli. Ayniqsa, hozir dunyoda logistika muammolari avjiga chiqqan vaziyatda bu o‘ta dolzarb hisoblanadi.

uchun transport xarajatlari ko‘pincha import qilinadigan tovarlar qiymatining 70-80 foizigacha yetadi. Bu esa so‘nggi paytlarda Markaziy Osiyo davlatlariga xalqaro ahamiyatga molik bo‘lgan transport imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi sa‘y-harakatlarni jadallashtirishga turkii bermoqda. Qolaversa, bo‘jxona tartib-taomillarining mukammal emasligi oqibatida yuk tashuvchilar tovarlarni yetkazib berishga ketadigan vaqtning 40 foizigacha bo‘lgan qismini behuda yo‘qotmoqda.

Jahon bankining logistika sohasidagi samaradorlik indeksiga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari 167 davlat orasida quyi o‘rinlarni egallab kelmoqda.

— Mamlakatimiz uchun transport yo‘laklarini di-



versifikatsiya qilish, jahon bozorlariga tez va erkin chiqish juda muhim, — deydi Ilhom Mahkamov. — Shu bois, O‘zbekiston xalqaro anjumanlarda bu masalani doim ko‘tarib, amaliy tashabbuslarni ilgari surmoqda. Qo‘shni va manfaatdor mamlakatlar bilan hamkorlikdagi loyihalar jadallashtirilmoqda.

E‘tiborga molik jihati, keyingi davrda barcha darajadagi muloqotlar faollashdi, amaliy, o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida muhim qadamlar tashlandi. 2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilindi, esa mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga ko‘taruvchi tarixiy voqea bo‘ldi.

Bundan olti yil muqaddam mamlakatimizning 2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash bo‘yicha kompleks dasturi qabul qilingan edi. Unda O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — O‘mon, O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy xalqaro transport yo‘laklari, shuningdek, Eron (Bandar Abbas, Chobahor) va Pokiston (Gvadar, Karachi) dengiz portlariga chiqish uchun transafg‘on transport yo‘lagini qurish bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni hayotga tatbiq qilishga alohida ahamiyat qaratildi. Bu borada dastlabki ishlar ham boshlab yuborilgan. Ushbu yo‘nalishning uzunligi 765 kilometrni tashkil etadi. Bu trassani aniqlash jarayonida topografik kosmik tasvirlardan foydalanib, birinchi yondashuvdagi texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari chiqarilgan.

Transafg‘on temir yo‘li Rossiya — Qozog‘iston — O‘zbekiston — Afg‘onistonni Pokiston — Hindiston portlariga olib chiqishda muqobil yo‘lakka aylanib, ayni paytda faoliyat ko‘rsatayotgan Shimol — Janub yo‘lagiga nisbatan 500-600 kilometr qisqaroq hisoblanadi.

Pokiston O‘zbekiston uchun juda ulkan bozor. Shuningdek, bu mamlakat yurtimizga Karachi, Qosim va Gvadar dengiz portlari orqali Yaqin Sharq, Afrika davlatlari, Hindiston bozorlariga chiqish imkoniyatini beradi.

Eksportlar tahlilicha, Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘li qurilishi birinchi bosqichda O‘zbekistondan Pokistonga yuk tashish vaqtini



“

**MAMLAKATIMIZDA
SANOAT, TADBIRKORLIK
TOBORA RIVOJLANIB,
EKSPORTYORLAR SONI
ORTIB BORYAPTI. XUSUSAN,
STATISTIKA AGENTLIGINING
2023-YIL YANVAR-MAY
OYLARIDAGI TASHQI SAVDO
BO‘YICHA DASTLABKI
MA‘LUMOTLARIGA ASOSAN,
O‘ZBEKISTON TASHQI
SAVDO AYLANMASI 25,8
MILLIARD DOLLARGA
YETDI VA 2022-YILNING
SHU DAVRIGA NISBATAN 5,2
MILLIARD DOLLARGA YOKI
25,4 FOIZ OSHDI.**

30-35 kundan 10-15 kungacha qisqartiradi. Shuningdek, transport xarajatlarni Rossiya va Pokiston o‘rtasida 15-20 foizga, Markaziy Osiyo davlatlari va Pokiston o‘rtasida esa 30-35 foizgacha kamaytirishi mumkin.

Loyiha to‘liq amalga oshirilgach, Pokistondan O‘zbekistonga yuk tashish 35 kun emas, 3-5 kun davom etishi, bitta standart yuk konteynerini tashish narxi qariyb uch barobar arzonlashishi, ushbu yo‘nalish bo‘yicha yuk tashish hajmi 10 million tonnaga yetishi mumkin.

Mazkur yo‘nalishning imkoniyatlari faqat shu bilan cheklanmaydi. Shu yilning 12-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan “Global Janub ovozi” onlayn sammitida e‘tirof etilganidek, mamlakatimiz Markaziy va Janubiy Osiyoning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirishga qaratilgan, Afg‘oniston orqali Hind okeaniga chiqadigan temir yo‘lini qurish loyihasini faol ilgari surmoqda. Bu borada Eronning Chobahor porti orqali o‘tadigan yo‘nalish katta istiqbol ochadi. Bu port orqali yuklarni tranzit qilishni Toshkent — Mari — Mashhad — Bafq — Chobahor yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirish va keyin dengiz transporti orqali Janubi-sharqiy Osiyo va Fors ko‘rfazi mamlakatlarga yetkazib berish mumkin. Uning yillik yuk tashish salohiyati 10 million tonnaga yetadi, deb baholanmoqda.

Mutaxassislar fikricha, Chobahor porti orqali o‘tadigan savdo yo‘li tovarlarni eksport qilish xarajatini 60 foiz hamda Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida mahsulot yetkazib berish muddatini 50 foiz qisqartirish imkonini beradi. Natijada tovarlarning raqobatbardoshligi oshadi.

Mavzuga doir yana bir tadbir 2022-yilning 3-dekabr kuni Toshkent markaziy temir yo‘l vokzalida ro‘y bergan edi. U Turkiya — Eron — Turkmaniston — O‘zbekiston yangi temir yo‘l yo‘nalishi ochilishiga bag‘ishlab o‘tkazildi. Tadbirda dastlab Turkiyadan O‘zbekistonga qarab yo‘lga chiqqan birinchi yuk poyezdini kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Turkiya tomoni bilan hamkorlikda Gumruh stansiyasidan Toshkent shahriga yuklarni tashish yo‘nalishini ishlab chiqdi. 40 ta vagonidan iborat poyezd Turkiya, Eron, Turkmaniston bo‘ylab harakatlanib, O‘zbekistonga yetib keldi.

Joriy yilning 26-iyun kuni yana bir xabar e‘tiborini tortdi. Xitoyning Syamin portidan O‘zbekistonga birinchi konteyner poyezdi harakati yo‘lga qo‘yildi. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ tomonidan ma‘lum qilinishicha, tarkibida mashiy texnika yuki (muzlatkich, kir yuvish mashinasi, gaz plitasi) bo‘lgan konteynerlar Xitoydan dengiz orqali Eronning Bandar Abbas portiga keltiriladi. So‘ngra yuklar temir yo‘l orqali Turkmanistonga, u yerdan Toshkentning Sergeli stansiyasiga yetkaziladi.

SHHT doirasida ham o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar tashkilotning keng hududida ulkan transport va tranzit salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilmoqda. Transport loyihalariga orqali O‘zbekiston o‘z hamkorlari bilan birgalikda O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy, Mozori Sharif — Kobul — Peshovar, Lanchjou — Qashg‘ar — Irkeshtom — O‘sh — Andijon — Toshkent — Mari va hozirgi geoiqtisodiy vaziyatda o‘ziga xos strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa transport yo‘laklarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirmoqda.

Joriy yil 4-iyun kuni Hindistonda bo‘lib o‘tgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari gashining videoanjuman shaklidagi majlisida ham O‘zbekiston tomonidan hozirgi vaqtda Shimol — Janub va Sharq — G‘arb magistral yo‘llarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator strategik loyihalarining faol ilgari surilayotgani alohida ta‘kidlandi. Bu borada Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha amaliy ishlar boshlangani, O‘zbekiston ushbu yo‘nalish bo‘ylab, shuningdek, Afg‘oniston orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlariga olib chiqadigan Eron va Pokiston portlari tomon multimodal tashuvlarni rivojlantirishga e‘tibor qaratayotgani e‘tirof etildi.

Tahlichiylarning ma‘lumotiga ko‘ra, ushbu loyihalarini yo‘lga qo‘yish yuk tashish hajmini bir necha marta oshirishi barobarida transport xarajatlarni uchdan bir qismga kamaytiradi. Shuning uchun O‘zbekiston tomoni SHHT davlatlarining transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqligiga doir yagona xaritani ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Bu mavjud “to‘siqlar” va “bo‘shliqlar”ni aniqlash, umumiy, o‘zaro integratsiyalashgan transport-tranzit tizimini shakllantirish uchun ustuvor chora-tadbirlar va loyihalarini belgilab olish imkonini beradi.



YANGICHA YONDASHUVLAR

Bugun dunyoda ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga e'tibor kuchaygan. Chunki bunday mahsulotlar salomatlik uchun foydali mikroelementlar, oziq-ovqat ratsionida o'rnini almashtirib bo'lmaydigan turli biologik moddalarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyodagi 170 dan ortiq davlatda 43 million gektardan ziyod maydonda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Dunyoda ana shunday mahsulotlar oldi-sotdisi yiliga 80 milliard dollarni tashkil etmoqda.

MINTAQADAGI YAGONA ILMIY MARKAZ

O'zbekistonda o'simliklar geni qanday asrab kelinmoqda?

Hozir ayni pishiqchilik pallasi, bozorlarimiz meva-cheva, poliz mahsulotlariga to'la. Bu quvonarli hol, albatta. Lekin xarid qilganda aksariyatimiz ularning qanday pishgani, kimyoviy o'g'itlarga suyangani yoki oziqlantirilmaganini bilan qiziqamiz. Buning ham sababi bor. Ayrim dehqonlarimiz hamon kimyoviy o'g'itlarga suyangani qolmoqda. Ular ko'proq mineral o'g'it bersam, mahsulot tezroq o'sib, tezroq pishadi, deb o'ylaydi. Vaholanki, dehqonchilikni biznesga aylantirish yaxshi emas. Buning inson salomatligi va o'simliklar geniga salbiy ta'siri katta. Demak, hamma narsaning me'vori bo'lgani ma'qul.

Shu jihatdan o'simliklarning genetik resurslarini strategik ahamiyatli hisoblab, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mustahkam hamda ajralmas qismi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni genetik resurslarni asrash va saqlash oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, atrof-muhit va iqlim sharoitining keskin o'zgarishi, boshqa omillar genetik xilma-xillikka ta'sir qilishi mumkin. Bu kabi muammolarni hal etishda genetik banklar (genbank), boshqacha aytganda, genofondlarning ahamiyati beqiyos.

Mutaxassislar tartibli yo'lga qo'yilgan genbanklar genetik xilma-xillikni yaxshi saqlashi hamda seleksionerlar uchun muhim boshlang'ich manba sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Genbanklar faoliyatini to'g'ri tartibga solish hamda genetik xilma-xillikni saqlab qolish maqsadida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti — FAOning 2013-yilda bo'lib o'tgan o'n to'rtinchi sessiyasida umumlashtirilgan standartlar qabul qilingan. Mazkur standartlar qator jarayonlarni tartibga soluvchi qonun va qoidalar to'plamidan iborat bo'lib, o'simliklarning genetik xilma-xilligini saqlab qolish uchun xizmat qiladi. Mazkur standartlar universal ahamiyatga ega bo'lib, butun dunyo miqyosida, turli mintaqalarda joylashgan genbanklardagi gempolazmani saqlash uchun umumiy tartiblarni belgilovchi mezonlardan iborat. Tavsiya etilayotgan standartlar genbanklarda urug'larni saqlash bilan cheklanib qolmay, balki vegetativ ko'paytiriladigan ekin turlarini dala genbanklarida saqlash uchun ham amol qiladi.

Ushbu standartlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish bo'yicha xalqaro kelishuvni ta'minlashda ham muhim asos hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi paytda dunyo genbanklarida saqlanayotgan 5,5 milliondan ortiq namuna insoniyat uchun muhim hisoblangan oziq-ovqat ekinlari hamda chorvachilikda keng qo'llanadigan yem-xashak o'simlik turlaridan iborat.

1992-YILDA
INSTITUTGA
O'ZBEKISTON
O'SIMLIKSHUNOSLIK
ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI
NOMI BERILDI.
2020-YILDAN
ESA BU YERDA
BAJARILAYOTGAN
ILMIY-TADQIQOT
ISHLARINING
MOHIYATI INSTITUT
NOMIGA MOS
KELMASLIGI
TUFAYLI UNING
NOMI O'SIMLIKLAR
GENETIK
RESURLARI ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI
DEB O'ZGARTIRILDI.



Mazkur genofondlarda qimmatli ekin turlarining yaqin o'tmishda yaratilgan navlaridan tashqari, uzoq o'tmishdan beri saqlanayotgan hamda ekilib kelayotgan ajdodlari ham bo'lib, ular yangilab kelinmoqda.

Mamlakatimizda ham olimlarimizga yangi fan va ilm yo'nalishtirish hamda tadqiqotlar bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilyapti. Shu maqsadda ilg'or fan yutuqlariga asoslangan bilim platformalari vujudga kelmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 13-maydagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markazi faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi o'simliklari turlarining milliy genbankini yaratish to'g'risida"gi qaroriga binoan, O'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti negizida O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Institutda mavjud Genbank esa milliy ahamiyatga ega, deya tan olinib, unga "Qishloq xo'jaligi ekinlari genetik resurslari Milliy Genbanki" maqomi berildi.

Ilm maskanimiz Markaziy Osiyodagi qishloq xo'jaligi ekinlarining yirik dunyoviy kolleksiyalari saqlanayotgan yagona ilmiy tashkilot hisoblanadi, — deydi O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktori Safar Aliqulov. — Jamoamiz oldiga mazkur yo'nalishda bir qator vazifalar qo'yilgan. Ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish, introduksiya etish va kolleksiyalarga jalb etilgan o'simlik materiallarini karantin ko'rigidan o'tkazish

orqali o'simliklarning Milliy genofondini yangi namunalari bilan boyitish, o'simliklar genetik resurslari jahon kolleksiyalarining eski reproduksiya urug'lari unuvchanligini qayta tiklash va vegetativ ko'payuvchi hamda ko'p yillik o'simliklarni tirik holda ushlab turish va ularni Milliy Genbankda kafolatli saqlash, qishloq xo'jaligi talablariga javob beruvchi navlar yaratish uchun muhim xo'jalik belgilarga ega bo'lgan madaniy o'simliklar va ularning yovvoyi ajdodlarini institut kolleksiyalariga jalb etish, saqlash, hujjatlashtirish hamda undan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi ekinlarining evolyutsiyasi, filogeniyasi, sistematikasi, immuniteti nazariy muammolarini hal etishga yo'naltirilgan fundamental va amaliy izlanishlarni amalga oshirish, mintaqamiz uchun noan'anaviy ekinlar hamda dorivor o'simliklar kolleksiyalarini tashkil qilish, o'rganib, ularni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etish shular jumlasidan.

Qayd etish kerakki, yurtimiz olimlari bu borada ma'lum tajriba va bilimga ega. Keyingi yili O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini boshlaganiga 100-yil to'ladi. 1992-yilda institutga O'zbekiston o'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti nomi berildi. 2020-yildan esa bu yerda bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining mohiyati institut nomiga mos kelmasligi tufayli uning nomi O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti deb o'zgartirildi.

O'simliklar genofondi nima?

Har bir ekinning madaniy va yovvoyi holda o'suvchi turlari, kenja turlari, shakllari, tizmalari, duragaylari hamda navlari mavjud. Bu ilmiy tilda genofond deyiladi.

Instituting Milliy Genbankida saqlanayotgan o'simliklar genetik resurslari kolleksiyalari Markaziy Osiyoda eng yirigi hisoblanadi. U botanik, genetik, geografik, ekologik xilma-xillikka ega bo'lgan namunalarni o'z ichiga oladi. Bular mamlakatimiz mulki va xalqimizning milliy boyligi sanaladi.

Keyingi yillarda global iqlim o'zgarishi va odamlarni sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash foidasi qishloq xo'jaligi ekinlari genetik resurslari va undan samarali foydalanishning ahamiyati yanada kuchaydi. Ya'ni havo haroratining keskin ko'tarilishi, garmseklarning tez-tez qaytarilishi, suv tanqisligi, sho'rlangan yerlarning kengayishi, kasallik va zararkunandalarning tez va katta maydonlarda tarqalishi o'simliklarning unumdorligini pasaytirib yuboruvchi omillar bo'lib qolayotir. Bu seleksionerlardan qishloq xo'jaligi ekinlari majmuasini yaxshilash, takomillashtirish va yangi sharoitlarga moslashgan navlar yaratish hamda yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Yangi navlar yaratish uchun esa seleksioner olimlarni yangi birlamchi materiallar bilan ta'minlash

zarur. O'simliklar genofondi va qishloq xo'jaligi ekinlarining jahon kolleksiyalari qimmatli xo'jalik belgilarga ega bo'lgan birlamchi materiallar manbai bo'lib, yangi nav yaratishda muhim rol o'ynaydi.

— Ayni shu maqsadda har yili respublikamiz bo'yicha ikki-uchta ilmiy ekspeditsiya tashkil etilib, institutning qishloq xo'jaligi ekinlari genofondi turli xil ekinlarning yovvoyi turlari, davr talabiga mos, istiqbolli yangi nav, tizim va populyatsiyalariga mansub 50-60 ta namuna bilan boyitib borilyapti, — deydi S.Aliqulov. — Shuningdek, dunyoning yirik o'simliklar genofondini saqlovchi tashkilotlari bilan gempolazma almashinish ishlari yo'lga qo'yilgan. Respublikamiz hududiga turli kasallik va zararkunandalari kiritib kelishining oldini olish maqsadida institut ko'chatzorida xorijdan keltirilgan turli qishloq xo'jaligi ekinlari namunalari maxsus tekshiruvlardan o'tkazilib, asosiy xo'jalik belgilari bo'yicha birlamchi baholalanadi. Tekshiruvdan o'tkazilgan barcha namunalari o'simliklarning genetik resurslari bilan ishlovchi bo'lim va laboratoriyalarga keyingi izlanishlar uchun beriladi.

100 xil ekinning 43 mingdan ortiq namunasi bu — katta boylik



Institutda tabiatda yo'qolib borayotgan, noyob, qadimiy va zamonaviy 100 xil navning 43 mingdan ortiq namunasi mavjud. Bu — juda katta boylik. Jumladan, bu yerda g'alla, dukkakli-don, makkajo'xori va yorma ekinlarining 21 ming 969 ta, texnik ekinlarning 12 ming 68 ta, sabzavot-poliz ekinlarining 5 ming 755 ta, meva-rezavorlar va uzumning 3 ming 985 ta kolleksiya namunasi o'rta muddat sharoitida saqlanmoqda. Botanik jihatdan kolleksiya namunalari 26 oila, 81 avlod va 178 turga mansubdir.

Institutda bir yillik qishloq xo'jaligi ekinlari genetik resurslari urug' genbankida, vegetativ ko'payuvchi va ko'p yillik sabzavot, texnik, meva-rezavor ekinlar va uzum dunyoviy kolleksiyasi esa dala genbanklarida saqlanmoqda.



УШБУ МАТЕРИАЛНИ ЛОТИН ЎЗУВИГА АСОСЛАНГАН ЎЗБЕК АЛИФБОСИДА ЎҚИШ УЧУН МАЗКУР QR-КОДНИ СКАНЕР ҚИЛИНГ.

Noyob ilmiy obyekt

Hujjatlashtirish bo'limida esa o'simliklar genetik resurslari bo'yicha kompyuter ma'lumotlar bazasini yaratish borasida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda institut urug' genbankida 63 xil qishloq xo'jaligi ekinlarining 34 ming 557 namunasi o'rta muddatda saqlanmoqda. O'rta muddatda kolleksion namuna urug'larini saqlash sharoiti tashkil etilgan. Ya'ni havo harorati doimiy +4 daraja va havoning nisbiy namligi 35 foizda ushlab turiladi. Bu juda qulay muhit. Chunki aynan shu sharoitda kolleksiya namunalari 15-20 yil davomida (ekin turiga qarab) saqlash imkoniyati yaratiladi.

Kolleksion namunalarning urug'lari unuvchanligini qayta tiklash maqsadida har yili 50-55 turdagi qishloq xo'jaligi ekinining 4 mingdan ortiq urug' namunalari dala sharoitida ekish yo'li bilan olinmoqda. Ekishdan avval va keyingi agrotexnik tadbirlar ham shu mintaqada qabul qilingan talab hamda ushlab asosida tashkil etilmoqda.

Mevali ekinlar kolleksiyalari namunalari tirik holda ushlab turish uchun ham zarur agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilmoqda. Kolleksion bog'larda sanitar qirqish, qator oralariga ishlov berish, sug'orish hamda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash ishlari olib boriladi.

Vegetativ ko'payuvchi va ko'p yillik sabzavot, texnik, meva-rezavor ekinlar va uzum dunyoviy kolleksiyasi esa institut hududida joylashgan (9 xil mevali ekinlar va uzumning 2 ming 509 namunasi) va institutning Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida (8 xil mevali ekinlar va uzumning 1 ming 688 namunasi) dala genbanklari (ko'p yillik vegetativ ko'payuvchi ekinlar kolleksiya ko'chatzorlari) sharoitida saqlanmoqda.

Institutda har bir ekin turi bo'yicha morfo-biologik, qimmatli xo'jalik belgi va xususiyatlarini o'rganish ishlari qabul qilingan talablar hamda deskriptorlar asosida amalga oshirilmoqda. Har yili 20-25 ekin turiga mansub 2000-2200 kolleksiya namunasi har tomonlama o'rganish asosida baholalanib, tavsifnoma beriladi. Bu har bir namunaning noyob qirralarini ochib berishga imkon yaratib, undan kelajakda ilmiy izlanishlarda foydalanish yoki seleksiya jarayonida yangi yuqori mahsuldor va yuqori sifatli nav hamda duragaylarni yaratishda dastlabki manba sifatida foydalanishga ulkan zamin yaratadi. Bu jarayonda to'plangan ma'lumotlarni kompyuter axborot bazasiga kiritish evaziga jamlangan ma'lumotlarni tahlil etish va ulardan samarali foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, institut tomonidan har yili respublika ilmiy tashkilotlari buyurtmasi hamda xorij ilmiy markazlari o'rtasidagi hamkorlik shartnomalariga asosida qimmatli belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlarini yaratish hamda turli tadqiqot izlanishlari uchun birlamchi manba sifatida foydalanishga uzatiladi. 2018-2019-yillarda 17 xil qishloq xo'jaligi ekinlarining 1 ming 664 kolleksiya namunasi respublikaning 14 ilmiy tashkilot va oliy ta'lim muassasasiga berilganiga buning tasdiqidir.

Turli yillar davomida institut olimlari tomonidan genofondan samarali foydalanish asosida donli, sabzavot, mevali, texnik va boshqa ekinlarning 250 dan ortiq navlari yaratilib, respublika bo'yicha rayonlashtirildi.

Hozirgi kunda yurtimiz hududida ekishga tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari davlat reyestriga 33 xil ekinning 85 navi kiritilgan. Institut ko'pgina qishloq xo'jaligi ekinlari navlarining originatori sifatida urug'chilik va fermer xo'jaliklarini sara urug' hamda ko'chatlar bilan ta'minlab kelmoqda.

Shu bilan birga, mintaqamiz uchun noan'anaviy ekinlar va dorivor o'simliklar kolleksiyalarini boyitish, o'rganish hamda undan oqilona foydalanish asosida xalq va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga

joriy etish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga noan'anaviy ekinlardan steviya, daykon, sabzavot soyasi, ko'k no'xat, sarsabil loviyasi, topinambur, batat, bargli karam, to'ng'iztaroq kabi ekinlar joriy etildi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish texnologiyalari, urug'chilik va ko'chatchiligi bo'yicha fermer xo'jaliklari hamda agroklastarlarga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatilib, dala kunlari tashkil etilyapti.

Turli mamlakatlar olimlari bilan har xil yo'nalishtirishda ilmiy aloqalar mavjud. Ular sirasiga Rossiyadagi VIL, Italiyadagi Bioversity International, Livandagi ICARDA, Hindistondagi ICRIASAT, Meksika va Turkiya hamkorligidagi CIMMYT, Janubiy Koreyadagi RDA hamda NIAB, Tayvandagi AVRDC kabi xalqaro tashkilot va yetakchi genbanklar kiradi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida sifatli va to'yimli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish muhim masala sifatida ko'tarilayotgan ekan, bu kabi ilmiy maskanlarning ahamiyati ham ortib boraveradi. Zotan, ularda saqlanayotgan o'simliklar fondi bebaho boylikdir.

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



1994-yilda institutning Qishloq xo'jaligi ekinlari genetik resurslari Milliy Genbanki respublikamizning noyob ilmiy obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. Uning tarkibida Urug'shunoslilik laboratoriyasi va Hujjatlashtirish bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Urug'shunoslilik laboratoriyasida qishloq xo'jaligi ekinlari genetik resurslari kolleksiyalari namunalari ro'yxatga olish, kolleksiya namuna urug'larini saqlashga qo'yishdan avval tozalash, unuvchanligi va namligini aniqlash, quritish hamda qadoqlash, urug'larni saqlashga qo'yish, reja asosida urug'lar monitoringini o'tkazish bo'yicha izlanishlar olib boriladi.



Qudratillo bilan bog'lanib, u haqda maqola tayyorlash istagimizni bildirdik, ammo 27 yoshli hamyurtimiz avval kompaniyada bir oy ishlab, muhit bilan yaqindan tanishgach, keyin batafsilroq suhbatlashgani ma'qul bo'lishini aytdi. Oradan bir necha oy o'tib, o'zbek yigiti biz bilan nufuzli kompaniya xodimi sifatida suhbatlashar ekan, avvalo, bugunga qadar bosib o'tgan yo'li, dasturchi sifatidagi ilk qadamlarini esladi. Chunki 2014-2018-yillarda Toshkentdagi INHA universitetining bakalavriat bosqichida tahsil olgach, 2023-yilga qadar "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida faoliyat yuritgan Qudratilloning "Amazon"ga borib qolishi tasodif emasdi.

"Eng muvaffaqiyatli loyiham..."

— Andijonda tug'ilib o'sganman, — deydi yosh dasturchi suhbat avvalida. — Bolaligimdan zamonaviy qurilmalarga qiziqqanman. Uyimizda kompyuter bo'lardi. Buzilib qolsa, odatda o'zim tuzatardim, turi dasturlar o'rnatishni bilib olgandim. Bu dasturlar qayerdan kelishi menga doim qiziq tuyulardi. Akademik litseyga o'qishga kirganimdan keyin bizdan katta kursda tahsil oladigan olimpiada qatnashchisi Ibadatoy opa informatika fanidan dars o'ta boshladi. Aynan shu vaqtdan bu yo'nalishga ishtiyoqim yanada oshdi.

Universitetga o'qishga kirganimdan keyin bu boradagi harakat va maqsadlarim yanada aniqlashdi. Jarayonga jiddiy kirishdim. Birinchi bosqichda tahsil olayotganimda bizga C++ tili o'rgatildi. Bu dasturlash tili bo'lib, ko'p oliyoghlarda o'qitiladi. Men uni shunchaki o'rganmasdan, balki o'zimning ilk dasturimni yaratishga erishdim. Bu ham-mamizga yaxshi tanish bo'lgan "Snake" o'yini edi. O'yin kompyuterga moslashgan bo'lib, "Windows command line" tizimida ishlardi. Biroq tetrisdagi singari menyusi, o'yin jarayonini saqlash funksiyalariga ega.

Mamlakatimiz aholisining 18 milliondan ortig'i yoshlardan iborat. Ularning aksariyati bugun zamonaviy axborot texnologiyalari yo'nalishiga dadil kirib bormoqda. Xorijda tahsil olayotgan yoki katta kompaniya xodimiga aylanib, yaxshigina daromad topayotgan yigit-qizlarimiz haqida eshitganda, faxrlanamiz. Ayniqsa, oxirgi yillarda jahon maydonidagi nufuzli FAANG (Facebook, Amazon, Apple, Netflix, Google) kompaniyalarida faoliyat yuritayotgan o'zbekistonlik dasturchi yoshlar soni ko'payishda davom etayotgani quvonarli. Ana shunday vatandoshlarimizdan biri Qudratillo Ismatov shu yilning mart oyida mashhur "Amazon" kompaniyasining Berlindagi ofisida muhandis-dasturchi sifatida ish boshladi.

Shundan keyin birin-ketin turli dasturlar yaratara boshladim. Bugunga qadar Android, iOS va boshqa ilovalar uchun "backend"lar yozganman. Gap shundaki, dasturlashning "frontend" va "backend" qismlari bo'ladi. "Frontend" foydalanuvchiga ko'rinmaydigan qismdir. Uni server, o'zbekcha aytganda, dasturiy ta'minot deb ham atashadi. Majoziy ma'noda "frontend" ni daraxtning yer yuzasidagi qismi deb olsak, "backend" uning ildizidir.

Dastur yaratish ham startap loyihaaning bir turi. Aniqlik, bu loyiha ham ishlab chiqarish jarayonidan to amaliyotga joriy etishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Dasturiy ta'minotning o'zi esa kompyuterda muayyan vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vosita. Ya'ni dasturiy ta'minot deganda, hisoblash texnikasi vositalari bilan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va ulardan foydalanish uchun qo'llanadigan dasturiy va hujjatli vositalar yig'indisi tushuniladi.

Shunday qilib, men yaratgan "backend"lar orasida turli yo'nalishdagilar, xususan, "chat", "vegan" retsept ilovalari ham bor edi. Lekin eng muvaffaqiyatli loyihalarimdan biri "MyUztelecom" ilovasi uchun yozgan serverim bo'lgan. Hozirgacha undan oyiga "O'zbektelekom"ning millonga yaqin mijozlari foydalanadi. Ilova orqali foydalanuvchilar tariflarini almashtirishi, paket va xizmatlarga ulanishi yoki o'chirishi mumkin.

Mahalliy kompaniya dasturchiligidan "Amazon" gacha

O'z ishini yaxshi biladigan, tajribali kadr darhol ko'zga tashlanadi. Qudra-

tillo ham "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida ishlash davomida katta loyihalari bilan e'tiborga tushdi. Hatto "LinkedIn" onlayn xizmatlar platformasi



orqali unga yirik xorij kompaniyalaridan takliflar kela boshladi. Ular orasida "Bolt", "EPAM" singari mashhur kompaniyalar ham bor edi. Yosh dasturchi esa masofaviy hamkorliklarga qarshi bo'lmasa-da, xorijga ketib ishlashni unchalik istamasdi. Ammo "Amazon"dan olgan taklifi uning fikrini o'zgartirdi.

Dasturchilik doimiy o'qib-o'rganish, izlanishni talab qiladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun tajriba katta ahamiyatga ega, — deydi Qudratillo. — Ayniqsa, dunyoda bu soha jadal rivojlanib, hatto davlatlar o'zlarining raqamli texnologiyalar borasidagi imkoniyatlari orqali yetakchiga aylanayotgan davrda jahon tajribasini o'rganish o'ta muhim. Chunki yaxshi dasturchi bo'lish uchun o'rganishning o'zi kamlik qiladi, uni ish jarayonida takomillashtirib borish, katta maydonda qo'llash

lozim. Kuchli dasturchilar tajribasini ko'proq o'rganish kerak. Men ham jahonga mashhur kompaniyada ishlab, tajriba oshirish imkoniyatini qo'ldan boy berishni istamadim va "Amazon" tomonidan berilgan taklifni qabul qildim.

Bu yerda juda katta jamoa — 1,5 milliondan ortiq kishi ishlaydi. Tasavvur qil-yapsizmi, ular orasida qanchadan-qancha tajribali muhandislar bor. Ular yillar davomida to'plangan, saralangan. Boisi, kompaniya kecha paydo bo'lib qolmagan. Unga 1994-yilda Jeff Bezos asos solgan bo'lsa, o'shanda u faoliyatini onlayn kitob sotish platformasi sifatida boshlagan edi. Astasekin boshqa tovarlar sotuvi ham yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga kelib esa "Amazon"

dunyodagi eng katta onlayn bozorlardan biri.

Kompaniya 2002-yildan "Amazon Web Services" xizmatini yo'lga qo'ydi. Bu mijozlarning o'z internet xizmatlarini "Amazon" serverlariga joylash imkoniyatini yaratdi. Men hozir kompaniyaning ana shu tizimida ishlayman. Ya'ni jamoamiz "Amazon EBS" (xotira) tizimining yuz minglab serverlari yangilanish tizimini ishlab chiqadi. Biz serverlarga yangilanishlarni uzluksiz, to'la avtomatlashtirilgan holda yetkazib berishga mas'ulim. Mazkur AWS xizmatlardan "LinkedIn", "Facebook", "Adobe" singari ko'plab mashhur kompaniyalar foydalanadi. Jamoamizda tajribali dasturchi-muhandislar jamlangan. Ular turli millatga mansub va men ulardan ko'p narsani o'rganaman.

Katta tajriba maydoni

Katta kompaniyada ishlash zavqli, albatta. Qudratilloning bu muvaffaqiyatidan o'ta-onasi, yaqinlari ham juda quvondi. Uni duolar bilan kuzatdi. Bir qarashda hammasi oddiydek. Ammo qahramonimiz taklifning o'zi bilanoq katta jamoaga qabul qilinmadi. Avvaliga bir necha bosqichli sinovlardan o'tdi. Shundan so'ng kompaniya u bilan 4 yillik shartnoma imzoladi. Ammo bu shu vaqt davomida uning ishi kafolatlanganini anglatmaydi. Yosh dasturchi ish davomida ham sinovda bo'ladi. Qo'laversa, Germaniyaga ham ilk borishi. Yangi sharoitga moslashib ketish uchun vaqt kerak. Lekin oilasining yonida ekan va o'z ishini sevisi uga kuch berdi.

— "Amazon"ning taklifini qabul qilganidan so'ng avval onlayn sinovdan o'tdim, — deydi u. — Algoritmga doir masalalar, ishga bog'liq texnik va axloqiy testlar berildi. Shundan 3 haftadan so'ng to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladigan oxirgi imtihonga tayyorgarlik ko'ra boshladim. Vaqt juda oz edi. Shu vaqt ichida FAANG (Facebook, Amazon, Apple, Netflix, Google) kompaniyalari savol-javoblari qanday bo'lishini o'zim uchun kashf qildim. Ularda nafaqat texnik, balki tajribadan kelib chiqib javob beriladigan axloqqa doir savollar ham bo'lar ekan.

Oxirgi imtihon 4 ta suhbatdan iborat bo'ldi. Har biri bir soatdan davom etib, orada 15 daqiqa tanaffus beriladi. Tushlik uchun 45 daqiqa vaqt ham ajratiladi. Shu tariqa deyarli bir kuningiz savol-javob bilan o'tadi. Suhbatlar davomida meni "Amazon"da ishlaydigan dasturchi-muhandislar imtihon qiladi. Oxirgi imtihon natijalari 7-10 kunda aytilgach, jamoa tanlash jarayoni boshlandi. Shunday qilib, kompaniya a'zosiaga aylandim.

Bu yerda ish tartibi boshqacharoq. Masalan, birinchi 6 oyda ishdan bo'shamoqchi bo'lsam, 2 hafta oldin ogohlantirishim shart. Birinchi 6 oydan keyin esa ogohlantirish muddati 3 oy bo'ladi. Kompaniya xodimini bo'shatmoqchi bo'lsa ham xuddi shu talabga rioya qiladi. Umuman, kompaniyaning 16 ta qat'iyl axloq prinsipi bor. Xodimlar bu prinsiplarni bilishi va ularga rioya qilishi juda muhim. Chunki barcha muammolar ana shu prinsiplar doirasida hal etiladi. Imtihonlar chog'ida ushbu axloqiy prinsiplarga urg'u berilgani boisi ham shunda.

Kompaniyada 5 ish kuni belgilangan. Shundan 3 kun ofisda bo'lsam, 2 kun onlayn

ishlayman. Nafaqat kompaniyada, balki Germaniyada ham yangi taassurotlar olayman. Balki bu ushbu diyorga ilk bor kelganim bilan bog'liqdir. E'tiborimni tortayotgan jihatlar talaygina. Masalan, Germaniyada daraxtlar ko'pligi va ularning hammasi raqamlanganini olaylik. Bu yerda o'simliklarga e'tibor kattaligi shundoq seziladi. Daraxtlarga raqam yopishtirishdan maqsad ham ularni o'z vaqtda nazorat qilish, har birini tekshirib, parvarishlashdan iborat. Kesilgan daraxt o'niga, albatta, yangisi ekiladi.

Shahar ichida yashil xiyobonlar ko'p. U yerda odamlarning dam olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Uyingiz yonidagi boqqa chiqib, taom pishirishingiz, turli sport o'yinlari o'ynashingiz, mayсалar ustida tamaddi qilishingiz mumkin. Faqat tabiatga zarar yetkazmaslik sharti bilan. Bu nemislarning qat'iyl qoidasiga aylanib ulgurgan. Men ham ushbu qoidaga amal qilgan holda oilam bilan tez-tez yashil parklarda sayr qilishni xush ko'raman.

Metroga kiraverishda to'siqlar va chiptani tekshiradigan nazoratchilar yo'q. Chiptani metro bekatlaridagi avtomat mashina yoki ilova orqali sotib olish mumkin. Kamdankam hollarda nazoratchi xodim chipta tekshirib yuradi. Agar chiptangiz yo'q bo'lsa, jarima to'laysiz.

Germaniyada velosipedlar uchun ham svetoforlar o'rnatilgan. Chunki bu yerda ko'pchilik transport vositasi sifatida oddiy va elektron velosipedlardan foydalanadi. Shaharda chang kam ekanini e'tiborimni tortdi. Bu yerda poyabzal tez chang bo'lmaydi.

Umuman, ana shunday kerakli tajribalarni o'rganish uchun ham xorijda ishlash foydali, deb bilaman. Mendan ko'pincha maoshim haqida so'rashadi. Ochig'i, buni aytish bir oz noqulay, ammo yaxshigina haq to'lanishi rost. Lekin bu yerdan olinadigan tajriba juda muhim.

Ana shunday katta kompaniyalarda o'zbekistonlik yoshlar ko'p bo'lishini istardim. Chunki bizda bu boradagi salohiyat oshib boryapti. Yurtimizda raqamlashtirish jarayoni jadallashib borishi bilan shu soha kadrlariga talab ortib borayotganini kuzatyapmiz. Zamonaviy kasblarda yaxshi mutaxassis bo'lish uchun esa yuqoridagi aytganimgdek, tinimsiz o'qib-o'rganish, bilimlarni boyitib borish va albatta, tajriba oshirish zarur.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Yozning jazirama kunlarida soya-salqin maskanlarda dam olishga nima yetsin. Ta'tilda o'quvchilar oromgohlarda dam olishni orzu qiladi. Bunday oromgohlar yurtimizda ko'p. "Olmaliq konmetallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli "Istiqlol" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi ana shunday maskanlardan biri.

Oromgoh Zomin tog'larining xushmanzara hududida joylashgan. Hozir ikkinchi bosqichda 210 nafar o'g'il-qiz dam olmoqda. Hordiq chiqarish damlari maroqli o'tishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan. "Mohir qo'llar", "Yosh rassomlar", ingliz tili

va sport to'garaklari hamisha o'quvchilar bilan gavjum. Oromgohda reja asosida qiziqarli tadbir va musobaqalar muntazam o'tkazilmoqda. "Talentlar tanlovi" dam oluvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Bu tanlovda "Eng yaxshi rassom", "Eng yaxshi sportchi",

"Eng yaxshi qo'shiqchi", "Eng faol kitobxon" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

— Men "Yosh sportchi" nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritdim, — deydi dam oluvchi Bobur Abdullayev. — Oromgohda tajribali murabbiylar tomonidan voleybol, futbol, stol tennis, shaxmat-shashka bo'yicha muntazam musobaqalar tashkil etilmoqda. Musobaqalar bizni chiniquitirib, salomatligimizni yanada mustahkamlashga yordam bermoqda.

O'quvchilarning dam olishini namunal tashkil etish uchun zarur sharoit yaratildi. Kombinat kasaba uyushmasi ayni kunlarda tadbir va musobaqalar o'tkazish, g'oliblarni rag'batlantirish, dam oluvchilar xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat va taomlar sifatini nazorat qilishga yaqindan ko'maklashmoqda.

— Oromgohda har kuni reja asosida muayyan mavzu bo'yicha tadbir tashkil etamiz, — deydi bosh tarbiyachi Alla Latisheva. — "Do'stligimiz barqaror" mavzusidagi tadbirda dam oluvchilar turli millat vakillari qiyofasida milliy liboslarni namoyish qilishdi. Qardosh xalqlar tillarida qo'shiq va raqslar ijro etildi. Ko'rik-tanlov tariqasida uyushtirilgan tadbirda faol ishtirok etgan yoshlar rag'batlantirildi.

"ISTIQLOL"DA QUVNAB-YAYRAYMIZ!"

Bolalar bilan turli mavzularda ma'naviy-ma'rifiyl uchrashuv va suhbatlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. "O'zbekiston — muzaddas diyor", "Bilimli yoshlar — yurt tayanchi", "Kitob — ma'rifat chirogi" kabi tadbirlar shular jumlasidan.

— Zominning osmono'par tog'lari, yam-yashil archazorlari, sharqirab oqayotgan zilol suvlari, mayسالarga uchib-qo'nyotgan

kapalaklarni ko'rgan kishi beixtiyor qo'lga qalam olib, rasm chizgisi keladi, — deydi tasviriy san'at to'garagi a'zosi Mardona Murodova. — Men ham Zomin manzaralari asosida turkum rasmlar chizyapman. Mafunkor Zomin tog'lari haqiqatan mo'jizaning o'zinasini. Uning go'zalligi har qanday kishini maftun etadi. Buni ijod namunalarimda tasvirlashga intilyapman.



— Bu yilgi mavsumda besh bosqichda 1000 nafardan ziyod bola dam olishi rejalashtirilgan, — deydi oromgoh direktori Zuhra Mahkamova. — 14 nafar tarbiyachi va yetakchi to'garak mashg'ulotlari va musobaqalar tashkil etishda faollik ko'rsatmoqda. Bolalar ko'proq soya-salqin joylarda dam olib, davra suhbatlari, bahr-munozaralar, konsertlarda ishtirok etmoqda.

Oromgohda sport maydonchalari va cho'milish havzasi muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Musobaqalar, sayohatlar oromgoh shifokori va hamshiralari tomonidan nazorat qilingan. O'quvchilar bilan suhbatlashib, taassurotlari haqida eshitdik. O'g'il-qizlar "Men nima uchun 'Istiqlol'da dam olishni tanladim?" mavzusida videorealiq yaratib, uylariga jo'natibdi. Bolalar dam olish zo'r bo'lyapti, kelasi mavsum ham shu yerda dam olamiz, deyishmoqda. Ularning oromgoh haqidagi bunday iliq fikrlari bu maskanda xizmat ko'rsatish va dam oluvchilar uchun sharoitlar namunalini yo'lga qo'yilganidan darak beradi.

Abdusattor SODIQOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DUK

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.

44212 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Xayriddinmurod Abulfayzov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 05:20

Qabulkona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05